

ZARAFSHON VOHASINI KOMPLEKS INNOVATSION  
RIVOJLANTIRISH YUTUQLARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI  
V-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

# MATERIALLARI



# PROCEEDINGS

OF THE V-INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
INTEGRATED INNOVATIVE DEVELOPMENT OF ZARAFSHAN  
REGION: ACHIEVEMENTS, CHALLENGES AND PROSPECTS

## Volume II

18-19 April, 2024  
Navoi, Uzbekistan

ZARAFSHON VOHASINI KOMPLEKS INNOVATSION  
RIVOJLANTIRISH YUTUQLARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI  
V-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

# MATERIALLARI

## PROCEEDINGS

OF THE V-INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
INTEGRATED INNOVATIVE DEVELOPMENT OF ZARAFSHAN REGION:  
ACHIEVEMENTS, CHALLENGES AND PROSPECTS

18-19 April, 2024  
Navoi, Uzbekistan

### Volume II



paxta tozalash zavodlaridagi mashinalarni ta'mirlashga kelgan mutaxassislar, sayohatchilar, shuningdek, mahalliy harbiy qo'shinlar velosipedchilar komandasini tuzib, ularga turli topshiriqlar berishgan. [5]

Lekin, Turkistonga kirib kelgan yangi texnika vositasi velosipeddan foydalanish kun sayin kengayib borgan bo'lsada, unga qarshilar ham topilib turgan. Manbaalarda mahalliy yoshi katta jamiyatimiz qatlamlari orasida velosipedchilarga boshqacha nazarda qaralib, ularni ko'rib qolganda "shaytonning muxlisi" deb atashganligi takidlanadi.

XX asr boshlarida velosipedchilarning soni yanada oshib, arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1909-yilda shaharda ularning soni 614 ta bo'lgan bo'lsa, 1910-yilga kelib ularning soni 762 taga yetgan.[6]

"Туркестанские ведомости" gazetasining 1914-yildagi sonlarida "Swift" velosipedi reklama qilinishi, uning Riga, Stokgolm, Kiev olimpiadalarida birinchi mukofotni qo'lga kiritganligi ta'kidlangan. [7]

XIX asrning oxirlarida Turkistonga kirib kelgan yangi texnika xalqimiz orasida tez ommalashib, XX asrga kelib jamiyatda velosipedchilar soni sun sayin oshib borgan. Velosipedlarga talabning oshib borgani sayin uning yangi yangi modellari ham yaratilib borilgan. Shu tariqa yurtimizga kirib kelgan yangi texnika xalqimiz maishiy turmushida o'z o'rnini topib, bu jarayon bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda yurtimizga kirib kelgan yangi texnika va texnologiyalar jamiyatimiz turli qatlamlari orasida katta ahamiyat kasb etib, ulardan kundalik turmushda foydalanishgan. Bu va boshqa texnika vositalari inson mehnat faoliyatida qulaylik kasb etib, barcha sohalarda samaradorlikka erishilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'z Milliy Ensiklopediyasi Birinchi jild. T., 2000-yil.
2. Lotin tilida "veloks" so'zi "rez" degan ma'noni, "pedes" so'zi "oyoq" degan ma'noni anglatib, "velosiped" so'zi "tez yuruvchilar mashinasi" degan ma'noni anglatadi.
3. Chebaki.ru
4. Shodmonova S Turkiston tarixi – matbuot ko'zglasida (1870-1917-yy) T., "Yangi nashr", 2011.-B.170.
5. Shodmonova S Turkiston tarixi – matbuot ko'zglasida (1870-1917-yy) T., "Yangi nashr", 2011.-B.170.
6. O'zR MDA. 37-fond, 1-ro'yxat. 349-ish, 20-varaq.

## TURKISTON JADIDLARI MINTAQADA YANGI TEXNIKALAR TARQATISHNING TARG'IBOTCHISI VA TASHABBUSKORLARI

**Sh.A.Hayitov, D.D.Elova**

*Buxoro Davlat Universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida yangi texnika asbob-uskunalari kirib kelishi hamda bu jarayonga jadid ma'rifatparvarlarimizning qo'shgan hissasi va o'zni o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar** Bosmaxona, yozuv mashinalari, patefon, kinomotografiya, fotostudiya, dazmol, pochta, telegraf, elektr, radio, telefon, qo'l soati, samovar, kompas, mikroskop, kasalxona texnik vositalar.

#### **Kirish**

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston mintaqasiga yangi ekin navlari va yangi rusumdagi texnikalarning "Buyuk ko'chishi" bilan xarakterlanadi. Aynan ushbu

tarixiy-xronologik chegarada Turkiston o'lkasiga, Buxoro amirligi va Xiva Xonligi hududlariga o'z davrining yuzlab yangi texnikalari kirib keldi. Ular orasida bosmaxona, lito-bosmaxona, yozuv mashinkalari, gramplastinka, patefon, kinomotografiya, fotostudiya, dazmol, pochta, telegraf, elektr, elektr asboblari, radio, telefon, qo'l soati, samovar, Yevropa oshxona anjomlari, kompas, mikroskop, kasalxona texnik vositalari kabi yuzlab texnikalar bor edi.

### **Metodologiya**

Masalaning o'rganilganlik darajasini tahlil etar ekanmiz, Texnikalarning mintaqa bo'ylab tarqalishida Rossiya, Kavkaz, xorij firma va kompaniyalari, savdo shirkatlari, mahalliy savdogarlar, taraqqiyparvar shaxslar muhim rol o'ynadilar. Turkiston aholisi uchun yangilik bo'lgan zamonaviy texnikalarni mintaqa aholisi orasida tarqalishida jadid taraqqiyparvarlarining ham o'ziga xos roli va o'rni borligini e'tirof etmoq kerak. Birinchidan, jadidlarning aksariyati Sharq va G'arb mamlakatlari bo'ylab, ta'lim olish, yangiliklarni o'z ko'zi bilan ko'rish, texnika vositalarini olib kelish, ba'zan savdo-sotiq qilish kabi maqsadlarda xorijiy davlatlar bo'ylab sayohatlarga chiqdilar.

Ikkinchidan, jadid bobolarimiz Turkistonni jahon taraqqiyotidan ortda qolishining muhim omillaridan biri dunyoda yuz berayotgan texnik yangiliklardan xabarsizligi deb, hisobladilar.

Uchinchidan, Turkistonda dehqonchilik va sanoatni rivojlantirish, bu sohalarda jahon standartlari darajasiga chiqish texnik kashfiyotlarni ishlab chiqarishga jadal joriy etish deb hisoblandi.

To'rtinchidan, ular bir qismi sarmoyador bo'lganligi tufayli yangi texnikalarni yuqori narxlarda bo'lishiga qaramay, o'z yurtlariga sotib olib keldilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Ishoqxon Ibrat kabilar xorijdan bosmaxonalar olib keldilar. M.Behbudiy bosmaxona orqali "Nashriyoti Behbudiya"ga asos soldi, o'nlab kitob va qo'llanmalarni xususiy bosmaxonasida chop ettirib, Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Namangan, Skobelov (Farg'ona) shaharlaridagi kitob magazinlarida sotishni tashkil etdi. U "Oyina" jurnali va "Hurriyat" gazetasini bosib chiqarish uchun xorijdan "Relington", "Vost" markali qo'l yozuv mashinkalari sotib olib keltirdi.

U 1914 yilda "Oyina" jurnalining 28-sonida bosilgan maqolasida: "Ovro'pada ba'zi mashinalar chiqarilibdur. A'loi Amirzoda otash (olov) ila harakat qilaturg'on mashinalar ila yer hayday (traktor) ziroat qiladurlar, 200 ot quvvatiga barobar dehqonchilik otash (bug' dvigateli) mashinkalarni chiqoraturg'ondurlar...100 ming kishi sig'adurg'on katta kemalar ichida bosmaxona, teatrxa va korxona maktabliklari bo'lib, suv ustida bir kichik shahar hikmatidur[1]" – deb yozgandi.

Buxorolik jadid va taraqqiyparvar Hoji Siroj Hakim (1878-1914) 3 marta xorij safarida bo'ldi. Uning safarlari 1902; 1902-1905; 1905-1910 yillarda ro'y berib, 15 dan ortiq Yevropa, Osiyo mamlakatlarida bo'lgan Mirzo Siroj Hakim xorijdan kasalxona yangi texnik asboblarini (tanometr, mikroskop va h.k) olib keldi. Ular asosida Buxoroda birinchi zamonaviy kasalxona (xastaxona) ga asos soldi[2].

Munavvar qori Abdurashidxonov (1878-1931) rivojlangan mamlakatlardagi texnologiyalar yutuqlarini targ'ib etar ekan: "Yevropa va Amerika xalqlari osmonda parvoz etmoqda, suvda suzmoqda, yer yuzidagi barcha xalqlar bilan munosabatlar o'rnatgan aloqalar tufayli yagona madaniy texnologiyaga erishdi[3]" – deb yozgandi.

### **Natijalar**

Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, Buxorolik taraqqiyparvar Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev, Hamidxo'ja Mehrilar Istanbul (Turkiya), Bog'chasaroy (Qrim)ga sayohatlar qilib, ortga qaytayotganlarida o'zlari bilan Buxoroi-sharifga globus, mexanik qo'lsoati, samovar, mikroskop, texnik qurilma, asbob-uskunalar olib keldilar[4].

Abdurauf Fitrat Turkistonda ziroatchilik (dehqonchilik) kelajagini yangi, zamonaviy texnikalarsiz tasavvur qilish mumkin emasligini qayta-qayta takrorlagan. U yerni shudgorlashdan yetishtirilgan hosilni to‘plashga qadar mashinalardan foydalanayotgan Fransiyadan o‘rnak olishga yurtdoshlarni dav‘at etgandi[5].

Abdurauf Fitrat targ‘ibotida xorijdan yangi texnikalar keltirish bilan birga, yurtimizda yangi texnikalarni ishlata oladigan texnik xodimlarni tayyorlash uchun maktablar ochish ham muhim rol o‘ynaydi. Texnika va texnologiya sohasida yuz berayotgan inqilobiy o‘zgarishlarni millatdoshlarimizda idrok eta olishlari, bunday texnikalarni ishlatishiga qodir salohiyat va qobiliyat bizning yoshlarda mavjudligiga Abdurauf Fitrat qat‘iy ishonch bildirdi.

### **Xulosalar**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Turkiston va Buxoro jadidlari yangi texnikalarni targ‘ibotchisigina emas, balki yurtimizga ularni tashuvchisi ham bo‘ldilar. Ular orasidan Abduvohid Burxonov (1878-1934) singari yog‘och velosiped yasaganlar ham yetishib chiqqandi.

### **Adabiyotlar**

- 1.Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tarixi Ixtiroi-...// Oyna, 1914 yil 28-son; (arab imlosida).
- 2.Elova D.D. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yangi texnikalar tarqalishining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-maishiy hayotga ta‘siri. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro. – 2022. – B. 116-117.
- 3.Турсунов Р.Н. Воззрения национальных прогресистов на социально-экономических процессов в начале XX века. Авт.канд.дисс...Ташкент. – 2008. – С.18.
- 4.O‘zbekiston Milliy Arxivi. I-3-fond, 1-ro‘yxat, 444-yig‘ma jild, 15-varaq, 15-varaqning orqasi.
- 5.Abdurauf Fitrat. Hind sayyohi bayonoti // Tanlangan asarlar, jild 1. – T.: Ma‘naviyat; 2000. – B. 111-112.

## **YOSHLARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**Sh.Sh.Babayarov**

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

Ta‘lim-tarbiya jarayoni har galgidek murakkab va dolzarbdir. Bu borada ishlarini yangicha tashkil etish davr talabidir. Bu boradagi asosiy tadbir yoshlarning mustaqil fikrlay olishini ta‘minlashdir. Sharq allomalarining talqinicha, mustaqil fikrlash komillikning asosiy belgisidir. U avvalo, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Mustaqil fikr yuritish jarayoni yoshlarda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz, maqsad kabilarni vujudga keltiradi. Mustaqil fikr yuritishining mustahkam negizini esa shaxsiy ehtiyoj, qiziqish, mayl, qobiliyat, iste‘dod, ilmiy salohiyat tashkil etadi. Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda yoshlarimizning o‘zlari ishchanlik bilan harakat qilishlari, mustaqil fikrlashlari, o‘z ustlarida uzluksiz ishlashlari natijasida ularning qobiliyati va iste‘dodi rivojlanib boradi. Bu borada yurtboshimiz har bir nutqlarida ta‘lim va tarbiyani uzluksiz taraqqiy ettirish, sog‘lom hayot tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirish lozimligini alohida uqtirganlar.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar muvaffaqiyatining zamirida har bir fuqaroning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar mavjud. Yoshlarimiz yangicha innovatsion fikrlash asoslarini puxta egallab olsagina, ular boy tarixiy merosni, zamonaviy, ma‘naviy, insoniy fazilatlarini egallaydilar. Bunda ustozlarning o‘z fanini chuqur bilishi va yoshlarni o‘qitishda xuddi shu jihatlarni hisobga olishlari zarur.

Buyuk allomalarimizning ilmiy merosiga tayangan holda aytish mumkinki, mas‘uliyat, ilmiy izlanish, ijodkorlik yetishmagan joyda mustaqil fikrlashga imkon bo‘lmaydi.

A.N.Raximov .....	329
<b>175.</b> ГУБИТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ АРАЛЬСКОГО КРИЗИСА НА ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РЕГИОНА А.М.Хакимов, Б.Ш.Касымов, З.А.Хакимова .....	331
<b>176.</b> ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ЭФФЕКТ ОПТИМИЗАЦИИ ЗАТРАТ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ НА ПРИМЕРЕ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРОЕКТА «СТРОИТЕЛЬСТВО КОМПЛЕКСА ПО ПЕРЕРАБОТКЕ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ ЦКВЗ (ГМЗ-7) НГМК Х.Н.Бакоев <sup>1</sup> , М.Н.Нодиров <sup>2</sup> .....	333
<b>177.</b> ҚИЗИЛҚУМ МИНТАҚАСИДА ҚАДИМГИ КОНЧИЛИК ВА МЕТАЛЛУРГИЯ Д.А.Исмоилова, Н.О.Бердиев .....	334
<b>178.</b> ЭВОЛЮЦИЯ ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ ЗЕРАВШАНСКОГО РАЙОНА: ДОСТИЖЕНИЯ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ Дж.Э.Рустамов .....	336
<b>179.</b> ПРОМЫШЛЕННОЕ НАСЛЕДИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ВЫЗОВЫ: АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЗЕРАВШАНСКОГО РЕГИОНА Дж.Э.Рустамов .....	338
<b>180.</b> МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МЕТАЛЛГА ИШЛОВ БЕРИШНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ Д.А.Исмоилова, Н.О.Бердиев .....	340
<b>181.</b> XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSH LARDA TURKISTONDA VELOSIPEDNING KIRIB KELISH TARIXI A.A.Ahmadov .....	342
<b>182.</b> TURKISTON JADIDLARI MINTAQADA YANGI TEXNIKALAR TARQATISHNING TARG'IBOTCHISI VA TASHABBUSKORLARI Sh.A.Nayitov, D.D.Elova .....	343
<b>183.</b> YOSHLARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Sh.Sh.Babayarov .....	345
<b>184.</b> NUROTA TUMANIDA AMALGA OSHIRILGAN IQTISODIY ISLOHOTLARNING TARIXIY TAHLILI (2017-2024) Sh.S.Norov, M.Z. Toshpo'latov .....	346
<b>185.</b> БУХОРО ХОНЛИГИ ДАВРИ ИНШОУТЛАРИ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИДАН Ш.Ш.Бабаярова .....	348
<b>186.</b> BUXORO KO'CHALARIDA AVTOMOBIL TEXNIKASI QACHONDAN QATNAY BOSHLAGAN EDI Sh.A.Nayitov, H.Y.Hasanova .....	349
<b>187.</b> МОЛОДЁЖНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ В РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОГО НАСЛЕДИЯ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА Ш.С.Норов .....	351
<b>188.</b> NAVOIY VILOYATI MISOLIDA ZARAFSHON VOHASIDA SANOAT RIVOJLANISHINING TARIXIY JIHATLARI Sh.A.Xayitov <sup>1</sup> , Sh.S.Norov <sup>2</sup> , O.J.Baxriddinov <sup>2</sup> .....	353
<b>189.</b> ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА ҚАЗИЛМА БОЙЛИКЛАРИНИ ТОПИЛИШ ТАРИХИДАН Х. Раупов .....	355